

SOMONIYLAR DAVLATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTNING O‘ZIGA
XOS JIHATLARI

Irgashov Xusniddin Nuridin o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqlolada o‘rta asrlarda Movarounnahr hududida faoliyat yuritgan Somoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida so‘z boradi. Qolaversa, Somoniylar davrida mintaqadagi yirik shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari yuksak darajada rivojlanganligi xususida ham to‘xtalib o‘tiladi. Bundan tashqari, mazkur sulolaning davlatchilimiz tarixida tutgan o‘rnini haqida atroflicha fikr yuritiladi.*

**ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ В СТРАНЕ
СОМАНИЙ**

Аннотация: В данной статье рассказывается о социально-экономической жизни государства Саманидов, действовавшего в регионе Моваруннахр в средние века. Кроме того, отметим, что в период сомонитов в крупных городах региона были высоко развиты различные области ремесел. Кроме того, будет подробно рассмотрена роль этой династии в истории нашего государства.

Ключевые слова: «Дар аль-Южния», «Дар аль-Иёдия», «Бухарская школа фикха», «Осар уль-Бакия», хиродж, В.В.Бартольд, «Байт ут-Тироз», судостроение.

**SPECIFIC ASPECTS OF SOCIO-ECONOMIC LIFE IN THE COUNTRY OF THE
SOMANIANS**

Abstract: This article talks about the socio-economic life of the Samanid state, which operated in the region of Movarounnahr in the Middle Ages. In addition, it will be noted that during the Somonites period, various fields of handicrafts were highly developed in the big cities of the region. In addition, the role of this dynasty in the history of our state will be discussed in detail.

Kalit so‘zlar: “Dor al-juzjoniya”, “Dor al-iyodiya”, “Buxoro fiqh maktabi”, “Osor ul-boqiya”, xiroj, V.V.Bartold, “Bayt ut-tiroz”, qayiqsoslik.

KIRISH

Har bir xalqning davlatchilik va madaniyati tarixini o‘rganish nafaqat ilmiy yoki nazariy, balki chuqur ma’naviy-ruhiy ahamiyatga ega bo‘lib, har birimizda o‘zimiz tug‘ilgan va yashayotgan ona zamin bilan mustahkam aloqadorlik hissini rivojlantiradi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o‘z o‘tmishiga qiziqishi kuchaydi. O‘zligimizni anglash, tariximizni

o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki, xalqimizning madaniy-ma'rifiy an'analari va merosini o'rganishda, milliy g'oyaning shakllanishida tarix fanining ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi va boy tariximizni o'rganish, uni keng ommaga yetkazish har bir tarixchi oldida turgan dolzarb vazifadir. Yurtimiz tarixida ajralmas sahifa sifatida e'tirof etiladigan Somoniylar davri shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada tinchlik siyosati hukmron bo'lgan va ilm-fan, madaniyat gullab yashnagan. Ushbu davrda o'lkamizdan mashhur mutafakkir olim Ibn Sino, islom ilmlarida katta shuhrat qozongan ilohiyotchi olim Abu Mansur Moturidiy kabi o'nlab allomalar yashab ijod qilgan. Shuningdek, ushbu davrda o'lkamizda islomiylar taraqqiy etgan va ko'plab ilm markazlari, jumladan "Dor al-juzjoniya", "Dor al-iyodiya", "Buxoro fiqh maktabi" kabi maktablar faoliyat olib borgan. Ushbu davr yana shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada millatlararo o'zaro totuvlik, e'tiqodiy xurlik va diniy bag'rikenglik barqaror bo'lgan. Mazkur maqoladada qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahrda mustahkam imperiya sifatida hukmronlik qilgan somoniylar davridagi shu barqarorlik tarixi haqida ma'lumot berishni maqsad qildik. Somoniylar davlatida IX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim o'zgarishlar yuz bergani va bir necha yillar davomida tinch siyosat va sharoitlar hukmron bo'lib turgani Movarounnahrning asosiy ilmiy markazlaridan hisoblangan Samarqand va Buxoro shaharlarida ilmiy jarayonlarning jonlanishiga zamin yaratdi

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Somoniylar davriga oid adabiyotlar ichida Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning (899-959) "Buxoro tarixi" (944), Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" yoki "Osor ul-boqiya" (1000), Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulkning (1018-1092) "Siyosatnoma" yoki "Siyar ul-muluk" (1091), asarlari o'sha davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini o'rganishda alohida o'rin tutadi[1]. Shuningdek, Abul-Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" (1030-1041), Abu Jafar Muhammad at-Tabariyning "Tarixi Tabariy", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'at at-turk" kabi asarlarida ham o'sha davrning tarixi bayon qilinadi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy va siyosiy tahlil, ketma-ketlik, xoslik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, mazkur manba anchagina boy sanaladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmnинг shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning ko'pgina sohalari rivojlangan edi. Somoniylar davlati aholisining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik solig'i (xiroj)dan xazinaga kattagina daromad tushgani uchun Somoniylar xo'jalikning shu tarmog'iga ko'proq, e'tibor bergen. Viloyatlarda suv taqsimoti tartibga solinib, ekin maydonlari imkonlari boricha kengaytirilgan. Bir qancha yangi sug'orish kanali qazilib, ularning dahanalariga miftoxlar (shlyuz) va suv tashlagich novalar qurildi. Oqar suv tanqis bo'lgan tog' oldilarida bandlar bino qilinib, suv omborlari barpo etiladi. Yer osti suvlaridan dehqonchilikda foydalanish uchun murakkab gidrotexnika inshooti -

korizlar qazilib ishgaga tushiriladi. Charxparrak chig‘irlardan keng foydalaniadi[1]. X asr arab geograflarining ta’riflashicha, Samarqand va Buxoro rustoklari Zarafshon daryosidan chiqarilgan shoh ariqlardan sug‘orilgan. Masalan, Varksar, Maymurg‘, Sanjarfagon va Darg‘om rustoqlarining dehqonchilik maydonlari Darg‘om anhoridan sug‘orilgan. Fay kanalidan sug‘orilgan yerlar Sug‘dning eng obod qismi bo‘lgan. Ibn Xavqalning yozishicha, Sug‘d daryosi Buxoro chegarasigacha obod qishloqlar orqali oqqan. Buxoro vohasi keng va obod bo‘lgan, u 17 ta sug‘orish shoh ariqlar orqali sug‘orilgan. Sirdaryo havzasida Iloq (Ohangaron) va Parak (Chirchiq) vodiylari ham nihoyatda obod va istehkomli qishloqlari ko‘p bo‘lganligidan, bu joyni o‘rtta asr tarixchilari «1000 qal‘ali mamlakat» deb ataganlar[2].

Sug‘orish tarmoqlarini loyqadan tozalash, turli xil suv inshootlarini ta’mirlash uchun har yili bahorda yuz minglab hasharchilar ishlagan. Mirob, juybon va poykorlar yoz bo‘yi gidrotexnika inshootlari rejimi va suv taqsimotini nazorat qilib turgan. IX asrdan Buxoro vohasining suv taqsimoti bilan shaxsan shahar qozisining o‘zi shug‘ullangan. Narshaxiyning yozishicha, Sa‘id ibn Xalaf Balxiy Buxoroga qozi bo‘lgach, “yaxshi qonun-qoidalar o‘rnatgan... toki kuchli kishi zaif kishiga zulm o‘tkazmasin uchun (shahar) to‘g‘onlarini qudirib, Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsim qilishni” joriy etgan[3]. IX-X asrlarda Movarounnahrda yaylov chorvachiligi rivoj topgan. Ko‘chmanchi chorvador qabilalar o‘troq aholini chor-vachilik mahsulotlari bilan ta‘min etib turgan. O‘troq aholi, o‘z navbatida, dashtliklarga hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib berib turganlar. IX-X asrlarda aholining xo‘jalik hayotida hunarmandchilik katta o‘rin tutadi. Movarounnahr va Xorazm shaharlarda to‘qimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, misgarlik, zargarlik, shishagarlik va duradgorlik ancha rivoj topadi. Ayni vaqtida shaharlarning me’moriy qiyofasi ham o‘zgara bordi. Mahobatli saroy, masjid, madrasa, namozgoh, xonaqoh va karvonsa-roylar hamda ustaxonalar qad ko‘tardi. Mahalla-kuylarda zargar, sarrof, to‘quvchi, kulol, misgar, temirchi, duradgor va boshqa hunarmandlarning uyjoylari va do‘konlari bo‘lgan. Ayni shu davrda Buxoro, Samarqand, Ko‘hna Gur-ganj, Marv, Binkat, Kesh, Nasaf, Axsikat kabi shaharlар o‘rtta asr hunarmandchiligining rivoj topgan yirik markaziga aylanadi. Narshaxiyning yozishicha, IX asrda Buxoro arki yonida podsholikka qarashli “Bayt ut-tiroz” katta to‘qimachilik korxonasi bo‘lgan. Unda qimmatbaho rangli mato, palos, darparda, yostiq jildi, joynamoz va ust kiyimliklar to‘qilgan. Samarqandda ko‘proq, misgarlik zargarlik va sarrojlik rivojlangan edi. Turli matolar, kimxbob, shoyi va rumollar to‘qilar, yuqori navli qog‘oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o‘zining ko‘nchilik mahsulotlari va charm buyumlari bilan, Iloq esa kumush va qo‘rg‘oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi. Movarounnahrning xo‘jalik hayotida Xorazm ham katta rol o‘ynaydi. Bu yerda hunarmandchilikning boshqa sohalari qatorida qayiqsozlik taraqqiy qiladi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlarda Amudaryo bo‘ylab muttasil yuk tashilgan. Bu davrda hunarmandchilikning ayrim sohalari yirik qishloqlarda ham ri-voj topdi. Buxoronning Zandana kishlog‘ida to‘qilgan «zandanacha» malla rang bo‘z, Samarqandning Vador qishlog‘ida tayyorlangan «vadoriy» matosi Sharqda mashhur va manzur edi[4]. IX-X asrlarga oid kulolchilik sirlangan idishlari va shishasozlik buyumla-ri bilan alohida mavgeni egallagan.

V.V.Bartold yirik tадqiqotlaridan birida Somoniylar va Yakut asarlarida qayd etilgan Zarafshon vohasida mavjud 223 ta qishloq nomlarini keltiradi. Shulardan 101 tasi Samarqand viloyatida bo'lganligini ham ta'kidlaydi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, arab geograflari faqat yirik qishloqlarni (asosan qaysi qishloqda jome masjid va bozor bo'lgan bo'lsa) tilga olganlar. Viloyatda aholining tig'iz yashashi hisobga olinsa, Sirdaryoning o'rta oqimida yana yuzdan ortiq kichik (50—100 kishi) yashaydigan kichik qishloqlar ham bo'lganligi ehtimoldan holi bo'lmasa kerak. Zarafshon vohasining quyi oqimlaridagi shaharlar ichida eng yirigi va nufuzlisi IX—X asrlarda Buxoro shahri edi.

Somoniylar davrida ko'plab yirik hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lgan. Jumladan, Buxoroning Zandona va Iskijkat qishloqlarida to'qilgan bo'z matolar, Samarqandning Vadori qishlog'ida yaratilgan mato buyumlar Eron, Iroq va Hindistondan tashqari joylarga ham olib ketilgan va mashhur bo'lgan. Buxorodan chetga qo'y terisi, yog', soch moyi, mayin gazlamalar, joynamoz gilamlar, gilamlar, mehmonxonalarga yoziladigan matolar, egarlar, Taboristonidan matolar, go'sht va qovunlar, har xil shoyilar, ro'mollar, uzangilar, suvluqlar, qayishlar, qozonlar, yong'oqlar, Jizzaxdan esa jun gazlamalar va kiyimlar, Shoshdan a'lo sifatli charm va charm mahsulotlari, o'qdonlar, egarlar, chodirlar, chakmonlar, namoz gilamchalar, yelkapushtlar, kamonlar, ignalar, bo'z, g'alla va qaychilar chiqarilgan. Arab geograflari Eloq viloyatini Shosh bilan Farg'ona oralig'ida joylashganligini qayd etadilar. Eloq X asrda kumush—qo'rgoshin qazib chiqarishning markazlaridan biri bo'lgan. Eloqda Movarounnahrning uchinchi kumush zarbxonasi ochilgan. Biri Samarqandda, yana boshqasi Buxoroda bo'lgan. Eloq chekani –“Shosh koni” deb o'sha davrda shuhrat topgan. O'z vaqtida Xuroson noibi Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid nomidan zarb qilingan kumush dirhamlarning birida “Shosh konida” 189-hijriy yilda (805-yil) zerb qilindi”, yana boshqa birida esa “190-(805-806) yilda” degan so'zlar bor[5].

XULOSA

O'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida Somoniylar sulolasining hukmronligi katta ahamiyat kasb etadi. Arablarga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bunday davlatlarning eng kattasi Somoniylar davlati edi. U Movarounnahr va Xurosandan Ray va Kavzingacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Ismoil ibn Ahmad (892-907) davrida mazkur sulolaning ko'zga ko'ringan namoyandalari, Somoniylar markaziy davlat apparatini mustahkamlashdan manfaatdor bo'lgan feodal zodagonlar qarshiligini sindirdi. Ismoil Somoniylar davlatning majmuuni tashkil etishda Sosoniylar Eroni va Arab xalifaligida qabul qilingan tajribalardan foydalandi va uni zamon talabiga qarab mukammallashtirdi. Hokimiyatning eng yuqori pog'onasida somoniylar turib, ular amir unvoni bilan idora qilganlar. Davlat majmuuni mustahkamlashda, Nasr II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abuabdullo Muhammad Jayxoniylar va Abufazl Muhammad Balamiylarning xizmatlari katta bo'lgan. Umuman, Somoniylar xukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlanganlar. Somoniylar davrida Xuroson va Movarounnahr qishloq xo'jaligini turli tarmoqlari xususan, dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Somoniylar davrida dehqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham keng sur'atlar bilan taraqqiy qildi.

Shahar aholisining ko‘p qismi hunarmandchilikning turli sohalari bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Manbalarda qayd qilinishicha Movarounnahrda, ayniqsa, to‘qimachilik yaxshi taraqqiy qilgan. Bir so‘z bilan aytganda, Somoniylar davlati o‘zbek davlatchilik tarixiga o‘zining ulkam xissasini qo‘shti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. “Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar”. Toshkent.: “Adolat”, 2001., B-64
2. Sultonov. F, Bozorboyev. F, – “O‘rta asrlar tarixi”, Toshkent., 2007., B-121
3. A.S.Sagdullayev– “O‘zbekiston tarixi”. Birinchi kitob., Toshkent., “Donishmand ziyosi”, 2021., B-327
4. Karim Shoniyozov. “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni”. T., “Sharq”, 2001, B-266
5. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. “Vatan tarixi”. 1-qism. T; “Sharq”, 2010, B- 322